

“VATAN HIMOYACHILARI KUNI” MUNOSABATI BILAN UNIVERSITETIMIZDA MADANIY- MA’RIFIY TADBIR O’TKAZILDI

Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetida, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil topganining 32 yilligi hamda “Vatan himoyachilari kuni”ga bag‘ishlangan “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari – tinchlik va osoyishtalik posboni” mavzusida madaniy-ma’rifiy tadbir o‘tkazildi.

Tadbir avvalida davlatimiz madhiyasi yangradi va Universitetning birinchi prorektori Alisher Ashurov kirish so‘zi bilan tadbirni ochib berdi.

Tadbirda tashrif buyurgan mehmonlar – O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti xarbiy xizmatchilari: podpolkovnik Sodiqov Xafizjon Murtazaevich va xarbiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori dosent Akbarov Laziz Izzatullaevichlar tadbir ishtirokchilarini mamlakatimiz hayotidagi qutlug‘ sana – Vatan himoyachilar kuni va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 32 yilligi bilan samimiy qutladi. Mehmonlar davlatimiz Qurolli Kuchlarini tashkil topishi, rivojlanishi va mamlakatimizda ushbu sohada olib borilayotgan islohotlar to‘g‘risida tadbir qatnashchilariga nutq so‘zladi. Shundan so‘ng, ushbu sanaga bag‘ishlangan videorolik namoyish etildi.

Tadbir davomida Qurolli Kuchlar Markaziy ashula va raqs ansambli xonandalari tomonida Vatanparvarlikni tarannum etuvchi kuy-qo‘shiqlar, shuningdek iqtidorli talabalarimizning musiqiy chiqishlari tadbir ishtirokchilariga ko‘tarinki kayfiyat bag‘ishladi.



